
The Linguistic Nature of Neologisms and Their Development in the Context of Globalization

Buronova Ra'no Abdujabborovna¹
r.buronova@dtpi.uz
Base Doctoral Student,
Denov Institute of Entrepreneurship and
Pedagogy

Annotation *This article provides a comprehensive and systematic analysis of the phenomenon of neologisms, which occupy an important place in modern linguistics. It examines the factors contributing to their emergence, their linguistic nature, formation mechanisms, and principles of classification. In addition, the methods of naming neologisms, their narrow and broad interpretations, as well as their semantic and functional features are consistently explored. The article also reviews the main scientific approaches to the study of neologisms – namely stylistic, denotative, lexicographic, concrete-historical, structural, dynamic, psycholinguistic, cognitive, linguocultural, and sociolinguistic perspectives – and analyzes their distinctive features on a scientific basis. It is shown that each of these approaches sheds light on the formation and development of neologisms from different viewpoints, while also possessing certain advantages and limitations. Furthermore, the article highlights the role of neologisms in the context of globalization, revealing their close connection with social development, science, and technological progress. In particular, the rapid development of information technologies, the Internet, and mass communication has significantly contributed to the swift formation and widespread dissemination of new lexical units. The research findings confirm that neologisms play a crucial role in enriching and renewing the lexical system of a language, as well as adapting it to modern communicative needs. Moreover, their functional significance in language development, practical applications, and prospects for further theoretical study are substantiated, leading to the formulation of general scientific conclusions.*

Keywords *Neologism, stylistics, denotative, lexicography, concrete-historical method, structural, dynamic, psycholinguistics, cognitive linguistics, linguoculturology, sociolinguistics, globalization, lexical system, new formation, neonomination, new name, new word, occasionalism, potential word*

Neologizmlarning lingvistik tabiati va ularning globallashuv sharoitida rivojlanishi

Buronova Ra'no Abdujabborovna
r.buronova@dtpi.uz
Tayanch doktorant,
Denov tadbirkorlik va pedagogika institute

Annotatsiya *Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda muhim o'rin egallagan neologizm hodisasi, uning paydo bo'lish omillari, lingvistik tabiati, shakllanish mexanizmlari hamda tasniflash tamoyillari har tomonlama va tizimli ravishda tahlil qilinadi. Shuningdek, neologizmlarning nomlanish usullari, tor va keng ma'nodagi talqinlari, ularning semantik va funksional xususiyatlari izchil yoritiladi. Maqolada*

¹ Buronova R.A. — ORCID: 0009-0009-0377-0899

neologizmlarni o'rganishga doir asosiy ilmiy yondashuvlar – stilistik, denotativ, leksikografik, konkret-tarixiy, struktur, dinamik, psixolingvistik, kognitiv, lingvokulturologik hamda sotsiolingvistik qarashlar batafsil ko'rib chiqiladi va ularning o'zaro farqli jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Ushbu yondashuvlarning har biri neologizmlarning shakllanishi va rivojlanishini turli nuqtai nazardan yoritib berishi, ularning afzalliklari va ayrim cheklovlari mavjudligi ko'rsatib o'tiladi. Bundan tashqari, maqolada globallashuv jarayonida neologizmlarning roli, ularning jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologik rivojlanish bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, internet va ommaviy kommunikatsiya vositalarining jadal rivoji yangi leksik birliklarning tez shakllanishi va keng tarqalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi alohida ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari neologizmlarning tilning leksik tizimini boyitish, yangilash hamda zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga moslashtirishdagi muhim omil ekanini tasdiqlaydi. Shuningdek, ularning til taraqqiyotidagi funksional ahamiyati, amaliy qo'llanish imkoniyatlari hamda nazariy jihatdan o'rganish istiqbollari asoslab berilib, umumiy ilmiy xulosalar shakllantiriladi.

Калит so'zlar *Neologizm, stilistika, denotativ, leksikografik, konkret-tarixiy usul, struktur, dinamik, psixolingvistika, kognitiv, lingvokulturologiya va sotsiolingvistika, globallashuv, leksik tizim, yangi hosila, neonominatsiya, yangi nom, yangi so'z, okkazionalizm, potensial so'z*

Лингвистическая природа неологизмов и их развитие в условиях глобализации

Бурунова Раъно Абдуджабборовна
r.buronova@dtpi.uz
Базовый докторант,
Деновский институт
предпринимательства и педагогики

Аннотация *В данной статье всесторонне и системно анализируется феномен неологизмов, занимающий важное место в современной лингвистике. Рассматриваются факторы их возникновения, лингвистическая природа, механизмы формирования и принципы классификации. Кроме того, последовательно освещаются способы номинации неологизмов, их узкие и широкие трактовки, а также семантические и функциональные особенности. В статье также подробно рассматриваются основные научные подходы к изучению неологизмов – стилистический, денотативный, лексикографический, конкретно-исторический, структурный, динамический, психолингвистический, когнитивный, лингвокультурологический и социолингвистический, а также проводится их научно обоснованный сравнительный анализ. Показано, что каждый из этих подходов освещает формирование и развитие неологизмов с различных точек зрения, обладая при этом как определёнными преимуществами, так и рядом ограничений. Кроме того, в статье раскрывается роль неологизмов в условиях глобализации, их тесная взаимосвязь с развитием общества, науки и технологий. Особо подчёркивается, что стремительное развитие информационных технологий, интернета и средств массовой*

коммуникации оказывает существенное влияние на быстрое формирование и широкое распространение новых лексических единиц. Результаты исследования подтверждают, что неологизмы являются важным фактором обогащения и обновления лексической системы языка, а также её адаптации к современным коммуникативным потребностям. Также обосновываются их функциональная значимость в развитии языка, практические возможности применения и перспективы дальнейшего теоретического изучения, что позволяет сформулировать общие научные выводы.

Ключевые слова

Неологизм, стилистика, денотативный, лексикография, конкретно-исторический метод, структурный, динамический, психолингвистика, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, социоллингвистика, глобализация, лексическая система, новое образование, неониминация, новое название, новое слово, окказионализм, потенциальное слово

Kirish

Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatda yuz berayotgan barcha o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan, texnologiya va madaniyat sohalaridagi yangilanishlar natijasida yangi tushuncha va hodisalar paydo bo'ladi. Ushbu yangiliklarni ifodalash ehtiyoji tilning leksik tizimida yangi birliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday yangi leksik birliklar tilshunoslikda neologizmlar deb ataladi.

Neologizmlar tilning lug'at boyligini kengaytirish bilan birga, uning zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga moslashuvchanligini ta'minlaydi. Ular muayyan davrda yangilik xususiyatiga ega bo'lib, vaqt o'tishi bilan umumiste'mol leksikasiga aylanishi yoki iste'moldan chiqib ketishi mumkin. Shu jihatdan neologizmlar tilning dinamik rivojlanish jarayonini aks ettiruvchi muhim lingvistik hodisa hisoblanadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida neologizmlar sonining keskin ortishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, internet va ommaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi yangi so'zlarning tez tarqalishiga va til tizimiga faol kirib borishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayon o'zbek tilida ham yaqqol namoyon bo'lib, turli sohalarda yangi

leksik birliklarning shakllanishiga olib kelmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi neologizmlarning lingvistik tabiati, shakllanish mexanizmlari va globallashuv sharoitidagi rivojlanish xususiyatlarini kompleks o'rganish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi neologizmlarning til tizimidagi o'rni, ularning shakllanish usullari hamda funksional xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Zamonaviy neologiya nazariyasining shakllanishiga Boduen de Kurtene, A.A. Potebnya, M.M. Pokrovskiy, A.M. Selishchev, L.V. Shcherba kabi olimlar katta hissa qo'shgan. Ular neologiyaning nazariy asoslarini yaratganlar. Neologiyaning leksikologiyaning mustaqil yo'nalishi sifatida shakllanishi XX asrning 70-yillariga to'g'ri keladi. A.A. Bragina, R.A. Budagov, T.O. Vinokur, N.Z. Kotelova, E.V. Rozen, Yu.S. Sorokin, N.I. Feldmanlarning ishlari asosiy ahamiyat kasb etadi. Shunga qaramay, neologizm tushunchasiga yagona yondashuv mavjud emas. Bu hodisa turli nuqtai nazarlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, yangi leksik birliklarni ifodalash uchun turli sinonimlar mavjud: innovatsiya, novatsiya, yangi hosila,

neonominatsiya, yangi nom, yangi soʻz, okkazionalizm, potensial soʻz kabi tushunchalarga alohida ajratilishini Ahmed Zuhair Mahmoud Jehad, Hisham Ali Hussein Ali "Anglicism as a source of language neologization" (Zuhair, 2022) maqolasida taʼkidlab oʻtadi. Ushbu tushunchalarni bir necha usulda talqin qilish mumkin boʻlib, ularning ichida "neologizm" atamasi eng maqbuli hisoblanadi. Tilshunoslikda neologizmlar masalasi tilning ijtimoiy tabiati va uning doimiy rivojlanishi bilan bevosita bogʻliq holda oʻrganiladi. Tilning jamiyat bilan uzviy aloqadorligi, undagi oʻzgarishlar va yangilanish jarayonlari dastlab umumiy til nazariyasi doirasida tadqiq etilgan. Xususan, I.A. Boduen de Kurtene, A.A. Potebnya va L.V. Shcherba kabi olimlar til tizimi va uning rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy asoslab berganlar (Baudouin de Courtenay, 1963).

Neologizm tushunchasi ilmiy muomalaga XIX asrda kirib kelgan boʻlsa-da, uning tizimli oʻrganilishi XX asrning ikkinchi yarmiga toʻgʻri keladi. A.M. Selishchev tilning ijtimoiy oʻzgarishlar bilan bogʻliqligini koʻrsatib bergan boʻlsa (Selishchev, 1928), A.A. Bragina neologizmlarni alohida tadqiqot obyekti sifatida oʻrganib, ularning tasnifi va xususiyatlarini ishlab chiqqan (Bragina, 1973). N.Z. Kotelova esa yangi soʻzlarni aniqlashda konkret-tarixiy yondashuvni taklif etib, neologizmlarni vaqt mezoni asosida baholash zarurligini taʼkidlaydi (Kotelova, 1978).

Tilshunoslikda neologizmlarni aniqlash va talqin qilishda turli yondashuvlar mavjud. O.S. Axmanova hamda D.E. Rozental va M.A. Telenkova neologizmlarni lingvistik terminlar doirasida izohlab, ularning yangi tushunchalarni ifodalashdagi rolini koʻrsatib beradilar (Akhmanova, 1966). A.A. Reformatskiy esa til tizimining barqarorligi va yangi birliklarning tizimga moslashish xususiyatini alohida qayd etadi (Reformatskiy, 1996).

Tilning leksik tarkibidagi oʻzgarishlar, ayniqsa, boshqa tillardan oʻzlashmalar masalasi L.P. Krysin tomonidan chuqur oʻrganilgan boʻlib, u neologizmlarning shakllanishida tashqi

omillarning ahamiyatini koʻrsatadi (Krysin, 1968).

Tilning ijtimoiy mohiyatini ilmiy asoslashda Ferdinand de Sossyur muhim oʻrin tutadi. U tilni ijtimoiy belgilar tizimi sifatida talqin qilib, uning jamiyat ehtiyojlariga qarab rivojlanishini taʼkidlaydi (Saussure F. de, 1916). Keyinchalik L. Bloomfield tilning leksik tizimidagi oʻzgarishlarni ijtimoiy jarayonlar bilan bogʻlab izohlaydi (Bloomfield, 1933). W. Labov esa yangi leksik birliklar dastlab norasmiy nutqda paydo boʻlib, keyinchalik adabiy tilga kirib borishini ilmiy asoslab beradi (Labov, 2001).

Zamonaviy tilshunoslikda neologizmlarni oʻrganish global xarakter kasb etmoqda. D. Crystal ingliz tilini neologizmlar ishlab chiqaruvchi global til sifatida baholab, zamonaviy texnologiyalar va internet til rivojiga katta taʼsir koʻrsatayotganini taʼkidlaydi (Crystal, 2003).

Soʻnggi yillarda korpus lingvistikasi doirasida olib borilgan tadqiqotlar neologizmlarni oʻrganishda yangi bosqichni boshlab berdi. Xususan, E. Llopart-Saumell va P. Cañete-González neologizmlarning stilistik va funksional xususiyatlarini korpus asosida tahlil qilganlar (Llopart-Saumell, Cañete-González, 2019). Shuningdek, M. Asif va hammualliflar tomonidan COVID-19 pandemiyasi davrida yuzaga kelgan neologizmlar tahlil qilinib, ularning jamiyatdagi oʻzgarishlar bilan bogʻliqligi koʻrsatib berilgan (Asif, Zhiyong, Iram, Nisar, 2021).

Yuqoridagi ilmiy qarashlar shuni koʻrsatadiki, neologizmlar tilning tabiiy rivojlanish mahsuli boʻlib, ular jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va texnologik oʻzgarishlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Shu bois, neologizmlarni kompleks va fanlararo yondashuv asosida oʻrganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda neologizmlarning shakllanishi, rivojlanishi hamda til tizimidagi funksional xususiyatlarini oʻrganish maqsadida

umumilmiy va maxsus lingvistik metodlar kompleks tarzda qo'llanildi.

Tadqiqotning asosiy metodlaridan biri sifatida tavsifiy (deskriptiv) metod qo'llanilib, neologizmlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning til tizimidagi o'rni va qo'llanish doirasi tahlil qilindi. Ushbu metod orqali yangi leksik birliklarning mazmuni va funksional vazifalari belgilandi. Shuningdek, struktur-semantik tahlil metodi yordamida neologizmlarning ichki tuzilishi, so'z yasash usullari (affiksatsiya, qo'shma so'z hosil qilish, qisqartmalar va akronimlar) hamda ularning ma'no o'zgarishlari o'rganildi.

Neologizmlarning yuzaga kelish jarayonini tarixiy jihatdan yoritishda tarixiy-qiyosiy metoddan foydalanildi. Bu metod asosida turli davrlarda paydo bo'lgan yangi so'zlar va ularning rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Bundan tashqari, kontekstual tahlil metodi orqali neologizmlarning real nutq jarayonida qo'llanishi, ularning pragmatik xususiyatlari hamda kommunikativ vazifalari aniqlandi.

Tadqiqotda sotsiolingvistik yondashuv asosida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarning neologizmlar paydo bo'lishiga ta'siri o'rganildi. Bu orqali til va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ochib berildi. Kognitiv va psixolingvistik yondashuvlar esa yangi leksik birliklarning inson tafakkurida shakllanishi, idrok qilinishi va nutqqa ko'chish jarayonlarini tahlil qilishda qo'llanildi. Zamonaviy lingvistik tadqiqot usullaridan biri sifatida korpus tahlili elementlaridan ham foydalanilib, neologizmlarning ommaviy axborot vositalari va internet matnlaridagi qo'llanish chastotasi hamda funksional faolligi o'rganildi.

Mazkur metodlarning uyg'un qo'llanilishi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi, tizimlilik va ishonchlilikini ta'minladi.

Muhokama

Neologizmlarga oid qarash va turli yondashuvlar mavjud bo'lib, bir necha turlarga bo'linadi.

- **Stilistik yondashuv:** Neologizmlar stilistik jihatdan ajralib turuvchi, yangilik mezonni asosida aniqlanadigan so'zlarga tayangan holda aniqlanadigan leksik birlik hisoblanadi. Biroq bu yondashuv subyektiv xarakterga ega bo'lib, so'zning yangi yoki yangi emasligi tilning leksik tizimidan emas, balki so'zlovchining nutqiy tajribasi va til kompetensiyasiga bog'liq holda belgilanadi (Krysin, 1968). Boshqa tomondan, muayyan davrda paydo bo'lgan so'zlar ham aynan shu mezon asosida neologizm sifatida baholanadi.

Ushbu yondashuvning asosiy kamchiligi – yangilikni aniqlashning subyektivligidir, ya'ni neologizmlarni ajratish uchun aniq va qat'iy mezonlar mavjud emas (Ratziburskaya, 2011) So'zning yangiligi hissi "ko'proq til tizimidan ko'ra, uni qabul qilayotgan shaxsning til qobiliyati va kompetensiyasiga bog'liq" (Krysin, 1968). Shunga qaramay, A. G. Lykov, A. V. Kalinin va E. V. Senko kabi tilshunolar neologizmlarni stilistik jihatdan tahlil qilish tarafdorlari hisoblanadi. Stilistik yondashuv neologizmlarni tahlil qilishning asosiy emas, balki yordamchi usullaridan biri sifatida qaraladi.

- **Denotativ yondashuv:** Mazkur yondashuvga ko'ra, neologizmlar tilda yangi voqeliklarni ifodalash uchun paydo bo'lgan so'zlardir (Zuhair, 2022). "Lingvistik terminlar lug'ati"da neologizmga "yangi predmetni nomlash yoki yangi tushunchani ifodalash uchun yaratilgan so'z yoki nutq birligi" sifatida ta'rif beriladi (Zuhair, 2022).

Biroq bu yondashuv ham ayrim kamchiliklarga ega bo'lib, jamiyat hayotida yuzaga kelgan har qanday yangilik har doim ham yangi so'z bilan ifodalanavermaydi. Bu holat tilning ichki imkoniyatlari va mavjud leksik vositalar hisobga olinmasligiga olib kelishi mumkin. Denotativ yondashuv tarafdorlari sifatida O.S. Axmanova, A.A. Bragina, L.T. Dibrova, V.A. Kozyrev, V.V. Lopatin, D.E.

Rozental, M.A. Telenkova va V.D. Chernyak kabi tilshunoslar qayd etiladi (Ali, 2016).

- **Leksikografik yondashuv:** Ushbu yondashuvga ko'ra, neologizmlar sifatida zamonaviy va ilmiy lug'atlarga hali kiritilmagan so'zlar qaraladi. Bu yondashuv tarafdorlari sifatida K. Barnhart, Fischer, Kerremans va Renouf kabi olimlar ko'rsatiladi (Zuhair, 2022).
- **Konkret-tarixiy yondashuv:** Ushbu yondashuvga ko'ra, neologizmlarni aniqlashda "yangi" tushunchasi faqat umumiy ma'noda emas, balki aniq vaqt mezonlari asosida belgilanadi. Ya'ni, har bir so'z turli davrlarda "yangi" sifatida qabul qilinishi mumkin, biroq uning paydo bo'lgan aniq tarixiy davri mavjud (Kotelova, 2002). Ushbu yondashuvning asosiy vakili N.Z. Kotelova hisoblanadi. Uning fikricha, so'zni neologizm deb atash uchun uning paydo bo'lgan vaqtini aniq belgilash zarur, ya'ni so'z ilgari mavjud bo'lmagan bo'lishi va ma'lum bir davrda tilga kirib kelgan bo'lishi lozim. Kotelova neologizmlar qatoriga nafaqat yangi paydo bo'lgan so'zlarni, balki mavjud so'zlarning yangi ma'nolari hamda so'z yasash orqali hosil qilingan yangi birliklarni ham kiritadi.
- **Struktur yondashuv:** Ushbu yondashuvga ko'ra, neologizmlar shakl va mazmun jihatdan mutlaqo yangi so'zlar sifatida qaraladi. Bunday birliklar ko'pincha an'anaviy so'z yasash modellari doirasidan tashqarida yuzaga keladi va til tizimida barqaror o'rin egallaydi (Reformatsky, 1996). Biroq bu yondashuv amalda cheklangan bo'lib, kam miqdordagi birliklarni qamrab oladi. A.A. Reformatskiy ta'kidlaganidek, butunlay yangi so'zlar juda kam uchraydi, bu esa tilning barqaror tizim ekanligini ko'rsatadi. Til, odatda, tizimdan tashqaridagi birliklarni qabul qilmaydi, balki ularni umumiy tizimga moslashtiradi (Reformatsky, 1996).

- **Dinamik yondashuvga ko'ra:** Ushbu yondashuvda til birliklari doimiy harakatdagi va o'zgaruvchan tizim sifatida ifodalanadi. "Til – bu doimo rivojlanib boradigan, o'zgarib turadigan tizimdir va uning eng muhim xususiyati aynan o'zgaruvchanlik hisoblanadi" (Reformatsky, 1996). Bu yondashuv neologizmlarning qachon va nima sababdan paydo bo'lganligi, qaysi davrda til tarmoqlarining faollashganini aniqlashga qaratilgan yondashuv hisoblanadi. Bu jarayonda sabab va oqibat o'rtasidagi bog'liqlik masalasiga alohida e'tibor beriladi. Dinamik yondashuv tarafdorlari sifatida L.P. Krysin, L.A. Kudryavtseva, Musaev Ali Mejidog'lu va R.Yu. Namitokova kabi olimlarni misol qilib keltirish mumkin (Krysin, 1968; Marchenko, 2013). Shuningdek, neologiyani o'rganishda boshqa yondashuvlar ham mavjud bo'lib, ularga psixolingvistik, kognitiv, lingvokulturologik va sotsiolingvistik yondashuvlar kiradi. Bu yondashuvlar fanlararo xususiyatga ega bo'lib, tadqiqotlarda nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, madaniyatshunoslik va sotsiologiya kabi fanlar usullaridan ham foydalaniladi.
- **Psixolingvistik yondashuv:** Ushbu yondashuvga ko'ra, neologizmlar psixik jarayonlar bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Ya'ni neologizm bu oddiy yangi paydo bo'lgan so'zlar majmuasi emas, u bevosita inson ongi bilan bog'liq holda yuzaga keladigan jarayondir (Labov, 1972). Ushbu usulda neologizmning yaratilishi butun boshli jarayon sifatida tasvirlanadi, ya'ni so'z qanday paydo bo'ladi, inson uni qanday tushunadi va nutqida qay yo'sinda qo'llay boshlaydi. Bu jarayon nafaqat lingvistik, kognitiv yoki psixologik omillar bilan, balki sotsiolingvistik omillar bilan ham bog'liqdir. Ya'ni ijtimoiy normalar, baholash mezonlari, moda va trendlar,

keng tarqalgan nutq shakllari kabi. Psixolingvistik yo'nalish vakillari V.V. Volkov, E.M. Pozdnyakova, T.Yu. Sazonova, S.I. Togoeyevalar inson lug'ati so'zlarning paydo bo'lishi va ishlatilishi jarayonlarini aniqlashtirgan tajriba usullarini ishlab chiqishgan (Lebedeva, Erpilova, 2018).

- **Kognitiv yondashuv:** Ushbu yondashuv psixolingvistik yondashuvga yaqin hisoblanib, neologizmlar yangi bilimlarni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ya'ni yangi so'z va tushunchalar dunyoning yangicha manzarasini aks ettirish vositasi sifatida xizmat qiladi (Marchenko, 2013). "Kognitiv yondashuv bilimlarni ifodalash usulini aniqlash imkonini beradi" (Marchenko, 2013).
- **Lingvokulturologik yondashuv:** Bu yondashuvda neologizmlarni o'rganish jarayonida xalqlarning madaniyati, turmush tarzi va madaniyat bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. E.I. Marchenko ta'kidlaganidek: "neologizatsiya jarayonini insonning ma'naviy-amaliy faoliyatiga murojaat qilmasdan tadqiq etish mumkin emas" (Marchenko, 2013).
- **Sotsiolingvistik yondashuv:** Ushbu yondashuv jamiyatdagi yangiliklarning tilda aks etishini o'rganadi. L.P. Krysin va boshqa olimlar ta'kidlaganidek, neologizmlar jamiyatning texnik va madaniy rivojini aks ettiradi (Krysin, 1968).

Neologizm haqidagi ilmiy qarashlar va paydo bo'lish va o'rganilish tarixi hozirgacha yangilanib, takomillashib kelmoqda. Bugungi kunda neologizmlarning o'rganilish jarayonini 1. Yangi so'z paydo bo'lish yo'llarini aniqlash; 2. Uning paydo bo'lish sabablarini o'rganish; 3. Foydalanishning pragmatik kontekstini belgilash.

Ushbu shaklda uch guruhga ajratish mumkin. Neologizmlarni keng va tor ma'noda tushunish mumkin. "Keng ma'noda neologizm leksik, so'z hosil qiluvchi, fonetik, morfologik yoki sintaktik usulida. Tor ma'noda esa, u faqat

yangi leksik yoki semantik birlikdir" (Dobrodomov, Borrowings, 1990). Ba'zi tadqiqotchilar boshqa til qatlamlaridan kirib kelgan so'zlarni ham neologizm sifatida qaraydilar, bular "nisbiy neologizmlar" deb ataladi.

Neologizmning keng miqyosda ko'proq ijtimoiy tarmoqlarda ommalashishi kuzatiladi. Yuzaga kelish usullariga qarab asosiy beshta turga ajratiladi: morfologik, semantik, leksik, qisqartmalar va akronimlar hamda so'z yasash jarayoni bo'yicha hosil bo'lgan neologizmlar. Tilshunoslik tarixida tilning o'zgaruvchan tabiatiga ilk ilmiy asos bergan olimlardan biri Ferdinand de Sossyur hisoblanadi. U tilni "ijtimoiy belgilar tizimi" sifatida ta'riflab, til birliklari jamiyat ehtiyojlariga qarab yangilanib borishini ta'kidlaydi (Saussure F. de, 1983). Sossyurning bu qarashi neologizmlarni tasodifiy hodisa emasligini ko'rsatadi. Ular jamiyat rivoji bilan uzviy bog'liq tabiiy jarayondir. XX asrga kelib esa tilshunoslar yangi paydo bo'layotgan so'zlarni lug'at tarkibining kengayishining bir qismi sifatida izohlashgan. Keyinchalik til jamiyat bilan o'zaro bog'liqligiga oid tadqiqot va tajribalar natijasida "neologizm" lar alohida o'rganiluvchi manbaga aylandi.

Tadqiqot natijalari

- Neologizmlar tilning tabiiy rivojlanish mahsuli bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi;
- Neologizmlarning shakllanishi asosan so'z yasash, semantik kengayish va boshqa tillardan o'zlashish orqali amalga oshishi isbotlandi;
- Yangi leksik birliklar dastlab norasmiy nutqda paydo bo'lib, keyinchalik
- Ommaviylashib adabiy til tarkibiga kirib borishi aniqlashtirildi;
- Globallashtirish jarayonida ingliz tilining dominant roli neologizmlar oqimini kuchaytirayotgan asosiy omil sifatida belgilandi;
- Neologizmlarni o'rganishda yagona yondashuv yetarli emasligi, balki

kompleks (integrativ) yondashuv zarurligi asoslab berildi.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda neologizmlarning lingvistik tabiati, ularning shakllanish mexanizmlari hamda globallashuv sharoitidagi rivojlanish xususiyatlari kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, neologizmlar tilning tabiiy rivojlanish mahsuli bo'lib, ular jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va texnologik o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq holda yuzaga keladi.

Ish davomida neologizmlarni o'rganishga doir stilistik, denotativ, leksikografik, konkretarixiy, struktur, dinamik, psixolingvistik, kognitiv, lingvokulturologik va sotsiolingvistik yondashuvlar tahlil qilinib, ularning har biri neologizmlarning muayyan jihatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Shu bilan birga, neologizmlarni faqat bitta yondashuv asosida emas, balki kompleks va integrativ tarzda o'rganish zarurligi asoslab berildi.

Tadqiqot jarayonida neologizmlarning shakllanishi asosan so'z yasash (affiksatsiya, kompozitsiya), qisqartmalar va akronimlar hosil qilish, semantik kengayish hamda boshqa tillardan o'zlashmalar orqali amalga oshishi aniqlandi. Ayniqsa, globallashuv jarayonida ingliz tilining yetakchi mavqei tufayli ko'plab yangi leksik birliklar boshqa tillarga, jumladan o'zbek tiliga ham faol kirib kelayotgani kuzatildi. Shuningdek, neologizmlarning dastlab norasmiy nutqda paydo bo'lib, keyinchalik ommaviy axborot vositalari va internet orqali keng tarqalishi hamda adabiy til tarkibiga singib borishi sotsiolingvistik qonuniyat sifatida asoslandi. Bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya vositalari muhim rol o'ynashi qayd etildi. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki:

- Neologizmlar globallashuv sharoitida til tizimining dinamik rivojlanish jarayoni sifatida kompleks va fanlararo yondashuv asosida tahlil qilindi;

- Neologizmlarning lingvistik tabiati stilistik, denotativ, leksikografik, struktur, dinamik, psixolingvistik, kognitiv, lingvokulturologik va sotsiolingvistik yondashuvlar integratsiyasi asosida tizimli ravishda yoritildi;
- O'zbek tilida neologizmlarning shakllanish mexanizmlari (so'z yasash, semantik kengayish, qisqartma va akronimlar, hamda boshqa tillardan o'zlashmalar) umumlashtirildi va tasniflandi;
- Globallashuv jarayonida ingliz tilining neologizmlar shakllanishi va tarqalishidagi yetakchi ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berildi;
- Neologizmlarning paydo bo'lishidan to umumiste'mol leksik birlikka aylanishigacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari (okkazonalizm, neologizm umumiy leksik birlik) konseptual model asosida izohlandi.

Mazkur tadqiqot natijalari quyidagi yo'nalishlarda amaliy ahamiyat kasb etadi:

- O'zbek tilshunosligida neologizmlar masalasini tizimli o'rganishda nazariy va metodik asos sifatida xizmat qiladi;
- Oliy ta'lim muassasalarida "Leksikologiya", "Umumiy tilshunoslik", "Sotsiolingvistika" va "Kognitiv lingvistika" fanlarini o'qitishda o'quv-uslubiy material sifatida foydalanish mumkin;
- Zamonaviy izohli, terminologik va sohaviy lug'atlar tuzishda yangi leksik birliklarni aniqlash, saralash va tizimlashtirishda qo'llanilishi mumkin;
- Tarjima amaliyotida, xususan, yangi paydo bo'layotgan tushunchalar va atamalarni adekvat ifodalashda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi;
- Ommaviy axborot vositalari, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlarda qo'llanilayotgan neologizmlarni tahlil qilish hamda ularning to'g'ri va me'yoriy qo'llanilishini ta'minlashda yordam beradi;

- Globallashuv jarayonida boshqa tillardan kirib kelayotgan yangi so'zlarni ilmiy jihatdan baholash va ularni milliy til me'yorlariga moslashtirishda qo'llash mumkin;

Til siyosati va til madaniyatini rivojlantirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanish imkonini beradi.

References:

1. Ahmed, Z. M. J., & Hussein, H. A. H. A. (2022). Anglicism as a source of language neologization. *Issue*, 143.
2. Ali, L. Z. (2016). Some aspects of studying lexical innovations in modern linguistics and psycholinguistics. *Young Scientist*, 7(111), 1134–1137.
3. Akhmanova, O. S. (1966). *Dictionary of linguistic terms*. Soviet Encyclopedia.
4. Asif, M., Zhiyong, D., Iram, A., & Nisar, M. (2021). Linguistic analysis of neologism related to coronavirus (COVID-19). *Social Sciences & Humanities Open*, 4.
5. Bloomfield, L. (1933). *Language*. Holt.
6. Baudouin de Courtenay, I. A. (1963). *Selected works on general linguistics*. Academy of Sciences of the USSR.
7. Bragina, A. A. (1973). *Neologisms in the Russian language*. Prosveshchenie.
8. Crystal, D. (2003). *The Cambridge encyclopedia of the English language*. Cambridge University Press.
9. Crystal, D. (2006). *Language and the Internet*. Cambridge University Press.
10. Kotelova, N. Z. (1978). *New words and their lexicographic fixation*. Nauka.
11. Kotelova, N. Z. (2002). First experience of lexicographic description of Russian neologisms. In *Modern Russian language: Lexicology, phraseology, lexicography* (pp. 301–309). SPbSU.
12. Krysin, L. P. (1968). *Foreign words in modern Russian*. Nauka.
13. Labov, W. (1972). *Sociolinguistic patterns*. University of Pennsylvania Press.
14. Labov, W. (2001). *Principles of linguistic change: Social factors*. Blackwell.
15. Lebedeva, S. V., & Erpilova, E. I. (2018). Neologisms: Essence of the problem. *Theory of Language and Intercultural Communication*, 3(30), 99–107.
16. Llopart-Saumell, E., & Cañete-González, P. (2019). Are stylistic neologisms more neological? A corpus-based study of lexical innovations of women and men. *Journal of Linguistics*, 55.
17. Marchenko, E. I. (2013). Cognitive approaches to the study of neologisms. *Bulletin of KRSU*, 13(9), 148–151.
18. Ratziburskaya, L. V. (2011). *Neology and neography of modern Russian language*.
19. Reformatsky, A. A. (1996). *Introduction to linguistics*. Aspect Press.
20. Reformatsky, A. A. (1955). *Introduction to linguistics*. Uchpedgiz.
21. Saussure, F. de. (1916). *Course in general linguistics*. Payot.
22. Saussure, F. de. (1983). *Course in general linguistics*. Fontana.
23. Selishchev, A. M. (1928). *Language of the revolutionary era*. Worker of Education.
24. Shcherba, L. V. (1974). *Language system and speech activity*. Nauka.